

BO'SMLARDA SHUG'ULLANAYOTGAN O'QUVCHILARNING SPORTDAGI ERISHAYOTGAN NATIJALARIDA OTA-ONALARNING O'RNI

Z.Boltayev, B.Namozov Samarqand Davlat universiteti

Jamiyat taraqqiyoti va davlatning rivojlanishida, ayniqsa uning dunyoga dong taratishida sportning o'rni beqiyosdir. Bugungi kunda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportga katta etibor qaratilmoqda. Ayniqsa yoshlar sportiga etibor juda yuqori darajada. Bu borada "Yosh avlodni sog'lomlashtirish muammolarini har tomonlama hal qilish to'g'risida", "O'zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining faoliyatini tashkil etish to'g'risida", "O'quvchi va yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musoboqalari tizimini tashkil etish to'g'risida" va boshqa ko'plab farmonlar, qarorlar qabul qilindi.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Yoshlar sportiga shunchalik katta etibor qaratilayotgan ekan, nima uchun BO'SMLarda shug'ullanayotgan o'quvchi yoshlarimiz kutilgan natijalarni ko'rsata olishmayapti, ularning kutilgan natijalarni berishi kimlarga bog'liq?

Bu savolga javob beradigan bo'lsak ularning kutilgan natijalarni bera olmasligining bir qancha sabablari bor va bu sabablarning asosiy qismi sport mashg'ulotida etiborga olinmaydigan, biroq eng muhim hisoblangan jihat, o'quvchining ota-onasiga bog'liq.

Sport mashg'ulotlarida ota-ona emas o'quvchi qatnashadiku, uni murabbiy tarbiyalaydiku, -deb aytish mumkin. To'g'ri sport mashg'ulotlarida ota-ona emas o'quvchining o'zi qatnashadi, unga murabbiy mashg'ulot o'tkazadi. Lekin bu degani bolaning qo'lga kiritadigan natijalari uchun murabbiy to'liq javobgar degani emas.

Bola boshlang'ich tarbiyani uyida ota-onadan oladi. Uning o'quv sport mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlari asosan uyda ota-onasining yonida o'tadi. O'quvchi ko'rsatadigan natijalarning ota-onasiga bog'liqligi jihatlari quyidagicha:

1. BO'SMda sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanayotgano'quvchining o'z ixtiyoriga, morfofunktsional xususiyatlariga va jismoniy imkoniyatlariga qaragan holda sport ixtisosligini tanlashi va shu sport turi bilan shug'ullanishi yoki o'zi ixtiyoriy emas, balki ota-onasining xohishi bilan majburan sport ixtisosligini tanlashi. O'quvchining majburan boshqa sport ixtisosligini tanlashi natijasida uning bu sport turiga qiziqishi yo'qligi va o'zi xohlamagan tarzda bu sport turi bilan shug'ullanishi.

2. O'quvchiga qulay shart-sharoitlar yaratib berish. O'quvchining sport mashg'ulotlariga qatnashishiga, mashg'ulotlardan tashqari uyda ham mustaqil shug'ullanishiga, kun tartibining buzilmasdan bir rejimda bo'lishini ta'minlab berish yoki berilmasligi.

3. O'quvchi BO'SMga sport mashg'ulotlariga kirganidan keyin ota-onasi uning o'qishidan tez-tez xabardor bo'lib turishi. O'quvchining sport mashg'ulotlarida muntazam qatnashayotganligi yoki mashg'ulotlarni qoldirayotganligidan xabardor bo'lib turishi va mashg'ulotlarda muntazam qatnashishini nazorat qilish yoki qilinmasligi.

4. O'quvchining erishayotgan natijalaridan xabardor bo'lib turishi. Uning murabbiysi bilan tez-tez uchrashib erishayotgan natijalari to'g'risida, kamchiliklari va yutuqlari to'g'risida suhbatlashib turishi va o'quvchining mashg'ulot jarayonlarini nazorat qilishi yoki qilinmasligi.

5. O'quvchini rag'batlantirib turish. O'quvchining yaxshi ko'rsatkichlarni ko'rsatayotganda unga maqto'v so'zlarni aytib, agar natija salbiylashsa unga ruhiy dalda berish bilan rag'batlantirib turilishi yoki rag'batlantirilmashligi.

6. O'quvchining o'qish va sport mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarida faoliyatining to'g'ri taqsimlanganligini ta'minlanganligi. O'quvchining o'qishdan va mashg'ulotlardan bo'sh vaqtlarida nojuy ishlariga qo'l urmasligi, zararli illatlarga ruju qo'ymasligi va vaqtini ko'cha-ko'ya bekorchilikda o'tkazmasligini ta'minlanganligi. Uning kun tartibida bunday holatlarning bo'lmasligini qat'iy nazorat qilish yoki qilinmasligi.

Biz yuqorida ko'rsatib o'tilganlarni hisobga olib, BO'SMlarda shug'ullanib sportda yaxshi natijalarga erishayotgan ba'zi sportchilar bilan suhbat olib bordik. Ularning sportdagi faoliyatiga ota-onalarining munosabatlari to'g'risida quyidagicha fikr bildirishdi:

1. O'quvchilarning tegishli sport ixtisosligini tanlashida o'z ixtiyorlari bilan, ota-onalarining roziligi bilan va qarshiliklarisiz tanlaganligi.

2. O'quvchilarning sport mashg'ulotlariga qatnashishi va uyda mustaqil ravishda shug'ullanishlari uchun qulay sharoitlar yaratib berilganligi.

3. O'quvchilarning sport mashg'ulotlaridan ota-onalari tez-tez xabardor bo'lib turishi, mashg'ulot murabbiysi bilan tez-tez uchrashib undan o'quvchining sport mashg'ulotlarida qatnashish davomati, erishayotgan natijalari va kamchiliklari to'g'risida suhbatlashib turishi hamda o'quvchining mashg'ulotlarda muntazam qatnashishini nazorat qilib turishlarini, ularning sportdagi erishayotgan natijalariga qarab ota-onalari rag'batlantirib, ruhiy dalda berib turishlarini ta'kidlashdi.

Sportda yaxshi natijalarga erishayotgan o'quvchilarning bergan javoblarini ko'rib chiqib aytish mumkinki BO'SMlardagi shug'ullanayotgan o'quvchilarning sportdagi erishayotgan natijalari samaradorligi yuqori natijada bo'lishi uchun ularning ota-onalari mas'uliyatni murabbiyning zimmasiga yuklab qo'ymasdan, balki murabbiy bilan bevosita hamkorlikda ish olib borishlari maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yoshlarning sportdagi erishayotgan natijalariga ularning ota-onalari bevosita bog'liqdirlar. Ular o'quvchilarning sport mashg'ulotlarida muntazam qatnashishiga, ularning erishayotgan natijalariga, shug'ullanayotgan sport turiga qiziqishi borligi yoki unga befarqligiga, ularning mashg'ulotlarga qatnashishi va mustaqil shug'ullanishi uchun shart-sharoitlar yaratilganligiga, qolaversa ularning ma'naviy va axloqiy tarbiyalariga etibor bersalar maqsadga muvofiq bo'lar edi.